

# “O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

BADIIY ASARTILIGA OID AYRIM MULOHAZALAR

**Tursunova Sanobar Najmiddinovna**

*Alisher Navoiy nomli O‘zbek tili va  
adabiyoti universiteti doktoranti*

*Annotatsiya. Ushbu maqolada Murod Mansurning ”Judolik diyori” romanining o‘ziga xosligi, badiiyasartili, dialektal so‘z va iboralardan foydalanganligi tahlilga tortiladi. Bundantashqari adibasarda Toshkent shevasi ham dabolalarni nutqigaxosso ‘zlardansamaralifoydalanganligi ta’biridabayonetiladi.*

**Kalit so‘zlar:** *til va uslub, iboralar, o‘xshatish, tashbeh, sheva, folklor, personaj.*

*Abstract. This article analyzes the originality of Murad Mansur's novel "The land of Judaism", the language of the artistic work, the use of dialectal words and expressions. In addition, the literary work describes the effective use of the Tashkent dialect and children's speech words.*

**Key words:** *language and style, expressions, simile, allusion, dialect, folklore, character.*

*Аннотация: В данной статье анализируется своеобразие романа Мурада Мансура «Жудолик Диёри», язык художественного произведения, использование диалектных слов и выражений. Кроме того, в литературном произведении описано эффективное использование ташкентского диалекта и слов детской речи.*

**Ключевые слова:** *язык и стиль, выражения, сравнения, аллюзии, диалект, фольклор, персонаж.*

Ma’lumki, badiiy asarni jonli qiluvchi kuch bu- badiiy tildir. Badiiy adabiyot tilining o‘ziga xos xususiyatlarini belgilovchi omillarlardan biri, badiiy asar tilining ta’sirchanligi bilan bog‘liqdir.

Badiiy asar tilining ta’sirchan bo‘lishida til elementlaridan mahorat bilan foydalanish muhimdir. Bu o‘z –o‘zidan har bir yozuvchining so‘z qo‘llashmahorati, uning har bir so‘zdan unumli foydalanish darajasini belgilaydi.

Prof. H.Umurov to‘g‘ri ta’kidlaganidek, "... badiiy asar tili oqar daryo. Uni o‘rganish ham uzluksiz harakatni taqozo etadi. Hayot va suv (adabiyot va so‘z) bir-biriga shunchalik zarurki, bir-birisiz yashay olmaydi; bir-birisiz yaratish qudratiga ega bo‘lmaydi.

Aslida badiiy asarning barcha komponentlari yozuvchi tili bilan yaratiladi. Yozuvchi manzara yaratadimi, obrazlar siymosini chizadimi yoki bo‘lmasa tabiat tasvirini, personajlar ichki kechinmalarini yoritadimi, bularning barchasi yozuvchi tili va uslubi orqali ro‘yobga chiqadi.

Murodjon Mansurning ”Judolik diyori” romani tilidagi jozibadorlik, matnlardagi mahzunlik va ta’sirchan ifodalanishi bilan, kitobxonni o‘ziga jalb qiladi. Har bir yozuvchining o‘ziga xos uslubi mavjud, bu uslub uning so‘zida, nutqida namoyon bo‘ladi.

# “O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

## mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Hozirgi paytda sheva va folklordagi so‘z boyliklaridan ham badiiy adabiyot tilida foydalanish ancha kuchaydi. Murod Mansurning “Judolik diyori” romanining o‘ziga xos bo‘lgan jozibasi, uning tilida aks etadi. Adib asarda adabiy til, xalq jonli tili bilan bir qatorda Toshkent shevasiga ham keng o‘rin berganligini ko‘ramiz. Taniqli yozuvchi Murod Mansurning besh kitobdan iborat “Judolik diyori” romanida “kirtax”, “oblochi”, “chochol”, “qiz o‘rtoq”, “bildoq” “aytuvli kishilar”, “mushmushakon”, “tovka”, “esar bo‘lmoq”, “g‘urmishlab ketmoq”, “xolamoyi” kabi Toshkent shevasi hamda bolalar nutqiga xos so‘z va iboralar, “Halokuning itidek”, “gapini yalpizlashga tushdi”, “kuksi kirlab ketgan”, “kichkina tortib kettim”, “jin topmast joylar”, “darvozaning bolachasi”, “ajinadan ham chiroyli bo‘lib ketipsan”, “orqangizga tashlavoring” kabi xalqona o‘xshatish va tashbeh san’atidan samarali foydalanilgan.

Mazkur asar misolida voqealarning real hayotdan olinganligiga, ularning kitobxonni qanchalik ishontirganligiga, yozuvchining so‘z ustasi ekanligiga, asarning badiiy tili- so‘z bilan ishontirish qobiliyati kuchliligiga hech shubha yo‘q:

” Ostonada oqsoch... nega oqsoch, oq-oppoq o‘rangan bir mahluq –ilon bo‘lib ilon emas, odam bo‘lib odam –naq oq ilon ikki bukilib, patnis ko‘targancha izn so‘rab turardi.

-Hazratim izn bersangiz, tushligingizni opkelub edum...

- Qani patnisni qo‘y, tuzukroq joylashib o‘tir. Birga –birga sening qo‘lingni ham ko‘rayluk, -dedi atay. Qani, bismillah ila boshla-chi, avval qaysinisidan totinamiz?...

-Yo‘-yo‘-yo‘... Nima deyapsiz? –U bizga mumkin emas, sizning didingizda biz kim bo‘pmiz, degan kabi sapchib tushib, hatto cho‘kkalagan joyidan surinib, gilamga tushib olgan edi.

-Qiziq jo‘ja nima demoqdaki, bu alpozga tushmaang, Jamoloxun?-dedi ulug‘ tutqun.

- Jo‘ja? Yo‘g‘-e, taom ham gapirgaymi hech zamonda? – deb kalovlandi u.

- Bo‘lmasa-chi, aytib turibdi-ku: yemang taqsir zaharlanganbiz, deb”... [ 2: 269-271].

Hozir To‘ra Jamoloxunni qilmishini, mudhish niyatini anglatish maqsadida tashqi ko‘rinishga ham salbiy tus beradi. Bu yo‘l bilan yozuvchi tasvirga kitobxonni qahramon tasavvuri, tasviri orqali sherik qilgan.

Yozuvchining asardagi qahramoni qarshisidagi kishining niyatini, maqsadini oldindan anglagan. Kitobxon Hozir To‘raning Jamoloxunning niyatini fahmlab, u keltirgan tushlik bobida aytgan hamda to‘g‘ri xulosaga kelgan ta‘kidiga shubha bilan qarashi mumkin emas, aksincha ul zotga yog‘iladigan baloning daf bo‘lishi tarafdori,

# “O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

## mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

o‘sha birgina ”yemang taqsir zaharlanganbiz” degan jumla kitobxondagi hayajonni bosadi, Jamoloxunga nisbatan kuchli nafrat o‘yg‘otib, sharmandali o‘limdan sharaflil o‘limni afzalligi bu yo‘lda mingta jonini sadqa qilishga tayyor To‘rani o‘tkir zehnlil ziyrak aqliga qoyil qoldiradi. Qahramon tilidan Jamoloxunga nisbatan: ” zaharli taom keltirib, meni zaharlamochi bo‘ldingmi? deb ifodalashi ham mumkin edi, ammo sabr-toqat, qotilga nisbatan bosiq munosabat, so‘z qo‘llash mahorati nozikligini anglatadi. Qotilni amali bo‘yniga qo‘yilgach, jazo masalasi ochiq qoldirilgan.Oradan necha yillar o‘tgach ham To‘ra suiqasd qilmoqchi bo‘lgan kimsa bilan yuzma-yuz bo‘lishiga muyassar bo‘ladi.Uni haligacha hayot nafasidan bahramand bo‘lib turishiga To‘raning tutqunligi yo‘l qo‘yadi, yozuvchi uni ojizligini ko‘rsatish uchun ulug‘ tutqun deb atagan.

Yozuvchi asarda tasvirlayotgan narsa, predmet hamda voqeani xarakterli tomonlarini to‘g‘ri ifodalaydigan so‘zlar bilan atab ko‘rsatadi. Unda voqealar rivojini to‘xtatadigan biror so‘z oraga kirganligini ko‘rmaysiz:

”Yonimda, shunday yonginamda bir pushtirang qanotli chigirtka paydo bo‘ldi. U maysalar ichidan o‘rmalab chiqib, otbashra boshini mag‘rur tutib, o‘zini oftobga solib turdi-turdi-da, qanotlarini yoyib, oyoqlarini kerdi va uchmoqqa shaylandi. Qimirlasam, sakrab qochvorishi tayin. Shu bois soya ustimdan sirg‘alib tushib, quyosh peshonamni qizdira boshlasa hamki, qimir etmadim, chidab yotaverdim. Chigirtkaxon nima qilarkin deb. Burnimning ichi qichishib kelib, aksa urib yuboray deyman, zo‘rg‘a o‘zimni tiyaman, u bo‘lsa, oyog‘ini keradi-yig‘adi, qanotlarini yoyadi. Axiyri bir sakrab ko‘tarilgan ham edi, allaqayerda tayyor turgan bir chumchuq pir-r uchib kelib, ildi-ketdi.Qanotlari naq peshonam ustida porillab, cho‘chib tushdim. Azot turib, o‘tirib olibman” [1:125-126].

Birgina chigirtkaning harakatlari uchishga tayyorgarlik ko‘rib, to sakrashni amalga oshirgungacha bo‘lgan davri, o‘ljasini poylab turgan chumchuqning harakatlari o‘ljasini nishonga olib, asir olganligi tasvirlari yozuvchi tilidan san‘atkorona kitob betlariga tushirilgan. Tilining badiiy jiololari aks ettirilgan.Chigirtka boshini otga o‘xshatilishini yozuvchi to‘g‘ri qiyoslagan, chunki hasharotning boshiga otning tumshug‘i va boshi o‘xshab ketadi.

Kitobxonni voqeaga sherik qila bilish, tilning jonli bo‘lishining omillaridan biri ekanligi ta’kidlandi.Bunda kitobxon qahramon va voqeani o‘z ko‘zi bilan ko‘radi, turli tovushlarni qulog‘i bilan eshitib, his tuyg‘ularni qahramon bo‘lib sezadi. Kitobxonni shu koy‘ga solishi jonli til belgisidir. Yozuvchi o‘z ortidan, ya’ni personajlari ortidan ular boradigan, ko‘radigan joylarga ergashtirib boradi, tabiiy ravishda o‘quvchini qahramon bilan suhbatlashtiradi:

# “O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

## mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

”Darvozaxona bir baland, uning yonidan chiqib borgan yog‘och zina undan uzun, tepada esa oldi ochiq bolaxonaning eshigi ko‘rinar edi. Bir vaqtlar o‘sha yerda ham o‘tirilgan ekanmi, tavba. Aqlim bovar qilmasdi. Pastdagi jilovxona esa undan ajoyib. Ustunlar-u tirgaklar vaqt kechishi zamon o‘tmish bilan o‘ngib-oqarib ketgan bo‘lsa-da, o‘sha-o‘sha baquvvat madobatli edi. Ustunlarning qo‘l yetar joylarida yassi qalpog‘iga qadar zanglab ketgan ulkan mixlar ko‘rinadi. Bir vaqtlar bu xonadonga uzoq-yaqindan aytuvli-aytuvli mehmonlar kelib turgan... [2:223-224].

Hattoki, o‘z ko‘zimiz bilan ko‘rganimizda ham uyning yoki binoning holatini bunday aniq tasvirlay olmaymiz yoxud eski yangiligiga, qanday materialdan ishlanganligiga umuman e‘tibor qilmasligimiz ham mumkin. Binobarin yozuvchi Murod Mansur asarda so‘zlarni o‘z o‘rnida qo‘llashda mahorat bilan foydalangan.

”To‘ra Nusratilla pochcha sandalning bir tarafini to‘ldirib, qo‘sh yostiqa suyangancha, mamnun jilmayib o‘tiribdilar. Har qimirlaganlarida ”O‘zingga shukr, shu kunlarga yetkazganingga shukr”, deb qo‘yadilar. Qarshimda esa, oq-oppoq bo‘lib Oyposhsha xolam choy qo‘yadilar, boshlaridagi qo‘shqavat oq ro‘molning bir uchini bo‘ynilaridan o‘tkazib shundaygina yelkalariga tashlab qo‘yganlarigami yo chiroq o‘sha yoqdaligi uchunmi, yuzlari shunday chiroyli bo‘lib ketganki, qarabla to‘ymayman?” [1:27].

Asarda Nusratilla pochchaning taqvodorligi bitta so‘z bilan ayon qilingan. Adib romanda o‘g‘ir vazmin, mulohazakor va taqvodor Nusratilla pochcha obrazini zulmkor tuzumni yoqtirmasligini ta’kidlaydi. Oyposhsha xolaning chiroyli, go‘zal ayol bo‘lganligini ham yuqoridagi matnda yozuvchi mohirlik bilan tasvirlaydi.

Ruschadan ”сочностьязыка” degan ibora ishlatiladi. Buni o‘zbekchada ”tilning shirali bo‘lishi” deb atash ma’qul bo‘lar edi. Hayotni jonli gavdalantirishda yozuvchi tilining shirali bo‘lishi ham katta ahamiyatga egadir. Yozuvchi birinchi qarashda, uncha zarur emasdek, aslida esa, badiiylik nuqtai nazardan zarur bo‘lgan tafsilotlarga o‘rin beradi. Jummalarga shira bag‘ishlab turgan so‘zlar olib tashlansa, ularning ma’nolarini quruq, shirasiz qilib aytib qo‘ya qoladigan so‘zga keltiriladi. Bunda yozuvchining uymakorlik san’atiga barham beriladi, jonli tasvir uslubi oddiy xabar uslubiga almashadi? [3:46-47].

”Bu yoqda otlar yulqinishni qo‘ymaydi, u yoqda maymunbashara biyasining arqonini yong‘oqning bo‘tog‘iga bog‘layolmay halak. Nima, balo, opke ayg‘irlaringni deb qoladimi? Bir kulgim qistaydi” [1: 137].

”Akmal o‘ris otini daraxtga bog‘lay olmayapti” degan jumla bilan ifodalasa ham o‘sha mano qoladi, ammo tilning shiraligi yo‘qolib, shakarsiz qahvadek, tuzsiz ovqatdek xususiyatini yo‘qatadi. Maymunbashara deganda ham unga nisbatan salbiy ifodalash bor.

# “O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

## mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Yozuvchi asarda Qur’oni Karim va buyuk muhaddis Imom al-Buxoriyning hadislariga o‘rin beradi:

”Bas, vatanlaridan hijrat qilgan, diyorlaridan quvilgan, mening yo‘limda aziyatlar chekkan va jang qilib qatl etilgan zotlarning gunohlarini o‘chirgayman”. Qur’oni Karim, 3/195.[1:351].

Qur’oni Karimdagi duolar orqali qahramonlari taqdirini ularning sharofatiga bog‘laydi:

”Yillar o‘tib, men Qur’on o‘qishga tushgach, qanchadan-qancha omonlik so‘rab o‘qiladigan oyatlarga duch keldim. Shulardan biri Xashr surasining oxirgi uch oyati edi. Uni har sahar uch bora o‘qigan kishini Alloh yetmish ming farishtasi bilan hifzu himoyasiga olishi va kechgacha omonlikda saqlashi aytiladi bir tafsirda. Qahramonim balki mana shunday duolar sharofati bilan qo‘rg‘onlanib, oyog‘i kesilmay qolgandir.”[2:167].

Demak, xulosa shuki, asarning tili nafis, mazmunli, jonli, aniq va shiralidir. Yozuvchi badiiy asar tili haqida gapirar ekan, o‘sha davr va muhitni tasvirlashga harakat qiladi. Yangi so‘z va iboralarni, sheva va folklordagi so‘z boyliklaridan mohirona foydalanganligi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Bu bevosita yozuvchi Murod Mansur asarda xalq tiliga ko‘proq murojaat etganligi hamda uning shu tilga e‘tibor qaratganligidan darak beradi.

Haqiqatdan ham uning ijodida qo‘llangan so‘zlar, Toshkent shevalarini ijodida juda san‘atkorlik bilan qo‘llagan. Murod Mansur shevaga xos so‘zlarni ma’no tomoniga ham asosiy e‘tibor qaratadiki, buni o‘rganish ham davr talabidir. Yozuvchi o‘z ijodida ishlatgan barcha so‘zlarga yuksak talabchanlik bilan qaragan. Milliy mustaqilligimizning hozirgi bosqichida o‘zbek tilining xalqaro nufuzini oshirish bo‘yicha bir qator xayrli va yaxshi ishlar amalga oshirilmoqda. Til muammolarini tadqiq qilishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Serqirra olim ayni ilmiy salohiyatga to‘lgan bir vaqtda bu dunyoni tark etdi. Ammo olimning bashariyatga qoldirgan ilmiy merosi abadiy yashaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Murod Mansur ”Judolik diyori”. Birinchi kitob. Toshkent: Sharq, 2007-yil.
2. Murod Mansur ”Judolik diyori”. Ikkinchi kitob. Toshkent: Sharq, 2007-yil.
3. Qo‘shjonov M. ”Ijodma’suliyati”. Adabiy-tanqidiy maqolalar. Toshkent: 1981-yil.
4. Yo‘ldoshev B., Shodiyev Z. ”UFQ” TRILOGIYASINING LINGVOPOETIK TAHLILI MASALALARI. Monografiya. Samarqand: 2006-yil.